

O‘ZBEK TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI MASALALARI

O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tildagi frazeologik birliklar faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo‘lishi bilan emas, balki mavjud iboralarning semantik, grammatik va funksional jihatdan yangilanishi asosida ham sodir bo‘lishi mumkinligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: stilistik effekt, leksik-semantik transformatsiya, sinonimlar, okkazonal plan, struktural o‘zgarish, umumtildagi o‘zgarishlar, individual-muallif o‘garishlar.

Abstract: This article talks about the fact that phraseological units in the language can occur not only by the emergence of phraseological neologisms, but also based on the semantic, grammatical and functional renewal of existing expressions.

Key words: stylistic effect, lexical-semantic transformation, synonyms, occasional plan, structural change, universal changes, individual-author changes.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что фразеологические единицы в языке могут возникать не только путем возникновения фразеологических неологизмов, но и на основе семантического, грамматического и функционального обновления существующих выражений.

Ключевые слова: стилистический эффект, лексико-семантическая трансформация, синонимы, окказиональный план, структурное изменение, универсальные изменения, индивидуально-авторские изменения.

Frazeologik birliklar o‘xshatma obrazlar yartish yoki qo‘llanishda bo‘lgan obrazlarni rivojlantirish hamda mavjud iboralarni semantik, grammatik va funksional jihatdan yangilash maqsadida semantik hamda leksik-semantik transformatsiya qilinadi. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning leksik, leksik-semantik transformatsiyasi stilistik effekt,¹ til ichki tizimining ehtiyoji, frazeologik shakllanishning omili deb e’tirof etiladi.

Leksik-semantik transformatsiyada mavjud frazeologik birliklarning leksik tarkibi va qisman ma’nolari transformatsiya qilinadi, natijada mavjud frazeologik birlikning variant va sinonimlari yoki butunlay yangi frazeologik birlik shakllanadi. *Avra-astarini ag‘darmok, avra-astarini qoqmok, avra-astari ochildi, avra-astari so‘kildi* kabi bir o‘xshatma obrazli frazeologik birliklar leksik transformatsiya qilinishi bilan birga, nutqda semantik ham farqlanishini kuzatish mumkin. *Bahrini ochmoq,*

¹ Qarang: Quchkartayev I. Frazeologicheskoye novatorstvo Abdulla Kaxxara. Avtoref.diss..kand.filol.nauk. T..1965.

bahri ochildi, bahri-dili ochilmoq, dili ochildi frazeologik birliklari leksik-semantik transformatsiya qilinib, bir obrazli frazeologik qatorlar yuzaga keladi. Yuz o'girmoq frazeologik birligining yuzini o'girmoq, yuzini teskari o'girmoq, yuzini ters burmoq kabi variantlari, *betiga qpramaslik, betini ko'rmaslik* kabi sinonimlari obrazlarning turli xilligi, leksik-semantik transformatsiya asosida shakllanganligi birlan farqlanadi. *Yuzi shuvut bo'ldi* frazeologik birligining yuzini *shuvut qilmoq, yuzi shamgin bo'ldi, beti shuvut bo'ldi* kabi variantlari bir tushunchani bir obraz yoki bir-biriga yaqin obrazlar asosida ifodalash bilan farqlanadi.

Tildagi frazeologik birliklar faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo'lishi bilan emas, balki mavjud iboralarning semantik, grammmatik va funksional jihatdan yangilanishi asosida ham sodir bo'ladi. Iborani o'zgarimas til birligi deb tushunish noto'g'riligini haqli ravishda aytgan Sh.Rahmatullayev iboraga birlashuvchi so'zlarning tabiati qanchalik yo'l qo'ysa, iboraning tarkibida shunchalik o'zgarishlar voqe bo'la oladi deya ta'kidlaydi. Bu o'zgarishlar esa frazeologik birliklar tranformatsiyasi deb yuritiladi. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning struktural o'zgarishi, umuman transformatsiyalanishi sistemasi umumtil miqyosida ham, okkazonal planda ham shu vaqtga qadar o'z yechimini topmagan. Bu, birinchidan, umutildagi frazeologik birliklarning ham, ayrim olingan so'z ustalari tilidagi frazeologik birliklarning ham o'zgarish holatlarini qamrab oluvchi ilmiy-tadqiqotning yaratilmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, transformatsiyalanishning ko'pgina nazariy masalalari asosli va to'g'ri yechilmagan yoki bu haqda turli qarashlar mavjud. Tilshunoslar frazeologik birliklarning struktural o'zgarishini tekshirishda ko'p holatlarda, asosan frazeologik birliklarning struktural o'zgarishi belgilarini yaxshilashga e'tiborni qaratib, uslubiy, vazifaviy yo'nalishlar esa e'tibordan chetda qolmoqda, Albatta, frazeologik birliklarning struktural o'zgarishini lingvistik aspektda o'rganish lozim, shundagina transformatsiyaga uchragan frazeologik birlikning o'ziga xosligi, ham amaliy ham nazariy ahamiyati yuzaga chiqadi.

Frazeologik birliklar turg'un, tilda tayyor holda bo'lganligi sababli bir qarashda ularning struktural tarkibi o'zgarimasdek tuyuladi. Ammo nutqda qo'llanilgan ko'pgina frazeologik birliklar ma'lum tashqi, ya'ni struktural va ichki o'zgarishlarga uchraydi. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning struktural o'zgarishi deformatsiya, ya'ni shakl buzilishi hodisasi sifatida qaralsa, ichki ya'ni ma'no o'zgarishi modifikatsiya hodisasi sifatida o'rganilib kelinadi.

Struktural o'zgarishlarga frazeologik birlik tarkibidagi ba'ki leksik komponentlarning sinonimik so'z yoki so'z birikmalariga almashtirilishi, ba'zi komponentlarning qo'shilishi, tushib qolishi, orttirilishi, komponentlar orasida kiritilishi, ya'ni umutildagi mavjud bo'lgan iboralarning tashqi shakli o'zgarishi hodisalari kiradi. Frazeologik birliklarda struktural o'zgarish yozuvchining ma'lum bir voqea-hodisani u yoki bu tarzda ifodalashi asosida yoki stilistik ehtiyoj natijasida

yuzaga keladi. Pirovardida individual-muallif frazeologik birliklar vujudga keladi. Bu frazeologik birliklar nutqda keng qo‘llanilib, adabiy tildan mustahkam o‘rin oladi. Shu bilan tilda yangi-yangi frazeologik birliklar paydo bo‘ladi va il frazeologik birliklar bilan boyib boradi.

Shuni ham ta’kidlash zarurki, frazeologik birliklarni struktural o‘zgartirish, ma’noning kuchayishi, emotsional-ekspressivlikka erishish ehtiyoji asosida ham tug‘iladi. Frazeologik birliklarning nutqda turli tarzda o‘zgarishlarga uchrashi oddiy narsa emas, ya’ni so‘z ustalari ularni maqsadsiz o‘zgartirmaydi. Demak, frazeologik birliklar nutqda ma’lum maqsadlar hisobiga struktural o‘zgartiriladi. N.M.Shanskiy ta’kidlaganidek, “turg‘un birikmalarning struktural o‘zgarishi stilistik vazifadan chetda turishi mumkin emas”. O‘zgarishga uchragan frazeologik birlik nafaqat nutkni bezovchi hodisa, shu bilan birga bu xildagi frazeologik birliklar matnga ma’lum stilistik kolriit emotsionallik, ekspressivlik, qo‘shimcha ma’no baxsh etadi, umuman, matnni o‘quvchiga yetkazishni faollashtiradi.

Hozirgi paytda tilshunoslikda frazeologik birliklarning struktural o‘zgarishi tilning adabiy tilning meyoriga muvofiq keladimi yoki bu o‘zgarishlar yozuvchi yoki shoirning ijodiy boyligimi kabi masalalar tilshunoslar oldida turgan muammolardan biri bo‘lib turibdi. Shu ma’noda, quyidagilarni farqlash lozim. Til materiallari shuni ko‘rsatadiki, umumtilda frazeologik birliklar keng ma’noda ikki xil tilda o‘zgarishlarga uchraydi: 1. Umumtildagi o‘zgarishlar; 2. Individual-muallif o‘zgarishlar.

Umutildagi o‘zgarishlar asos frazeologik birlik asosida yuzaga kelgan, tildan mustahkam o‘rin olgan iboralar sanaladi. Individual-muallif o‘zgartirishlar esa u yoki bu muallifning individual mahsuli bo‘lib ular hali tilda mustaxkam o‘rin olmagan, endigina iste’molga kirib kelayotgan iboralar sanaladi. Ularning umumtildan mustahkam o‘rin olishini nutq belgilaydi va ko‘p tomondan til vakillari tomonidan ularni qay tarzda qabul qilishiga bog‘liq. Masalan, yozuvchimiz Said Ahmad o‘zining “Kuyov” nomli komediyasida quyidagi hikmatli iborani keltiradi. *“Bolam, eshak minib oyoq ostini kyargandan, tuya minib uzoqni ko‘rgan yaxshi deydilar”*. Bu iboralar yozuvchining ijodiy mahorati va mahsuli bo‘lib tildagi mavjud bo‘lgan *“uzoqning bug‘doyidan, yaqinning somoni yaxshi”* iborasining sintezi asosida muallif tomonidan yaratilgan. Bu maqol tipidagi frazeologik birlik umumtilda hali mustaqil o‘rnashmagan. U muallifning shaxsiy mahorati asosida yuzaga kelgan. Ammo bu frazeologik birlik umumtildagi *“uzoqning bug‘doyidan, yaqinning somoni yaxshi”* frazeologik birligiga ma’no jihatidan tengdir.

Mazkur so‘z ustasi Shuxrat quyidagi individual-muallif frazeologik birligini yaratadi: *“omadi ketgan kishining ataladan tishi sinadi”*. Bu individual-muallif frazeologik birlik umumtildagi *“kambag‘alni tuyaning ustida ham it qopadi”* frazeologik birligi asosida yaratilgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, muqobil sifatidagi barcha o‘zgarishlar til meyorida ichida yuz beradi. Chunki bu variantdosh frazeologik

birliklar til fakti bo‘lib, ular tilning iste‘mol doirasida mustahkam o‘rganib olgan. Demak, o‘zgarishga uchragan frazeologik birliklarni tahlil etishda tahlil etilayotgan frazeologik birlikning umumtilga yoki nutqqa tegishliligi e‘tiborga olinishi kerak. Umumtildagi frazeologik birliklarni nutqiy frazeologik birliklardan farqlash, birining ikkinchisidan kelib chiqqanligi (motivatsiya) muqimligi e‘tiborga olinishi lozim.

Tilshunoslikda til elementlarini elliptik va pleonastik qo‘llash kabi bir-biriga zid bo‘lgan lingvistik hodisalar mavjud. Elliptik hodisada ixchamlikka erishish uchu tilning ma‘lum elementi tushirib qoldirilsa, pleonazmda ham til elementini keragidan ortiq qo‘llash nazarda tutiladi. O‘zbek tilshunosligida bu masalalar tining leksik materiallari asosida ancha durust ishlanganligini e‘tirof etish kerak. Ammo til elementlarining elliptik va pleonastik qo‘llanilishi frazeologik materiallar asosida keng o‘rganilmagan. F.Ibragimova o‘zining “Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis” nomli monografiyasida bir o‘rinda ellipsis hodisasining frazeologizmlar doirasida ham kuzatilishiga to‘xtaladi” va quyidagi misolni keltiradi: tilimizda “o‘lmoq” ma‘nosini ifodalashda joni uzilmoq frazeologizmidan ham foydalaniladi. Quyidagi matnda jon leksemasi ellipsisga uchragan bo‘lsa-da, uning ma‘nosi matnda ishlatilgan uzilmoq aktualizatorida saqlanib qolgan: *Biroq Uonsin peshingacha yetmadi-uzildi. Sham qorong‘usida uning jasadini qizil qo‘rpaga o‘rib aravaga solishdi. (A.Qahhor, Dahshat hikoyasi).* Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqda frazeologik birliklar ko‘p holatlarda pleonastik tarzda qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy tilda struktural o‘zgarish holga kelgan iboralarning struktural tarkibini kengaytirish, ibora komponentlari orasida so‘z yoki so‘z birikmalarini kiritish, tilda o‘rnatish qolgan frazeologik birliklarning komponentlaridan birini almash qo‘llanishi, frazeologik konvergensiya, frazeologik birliklarni aktualashtirish va hakozi uslubiy figuralarda til elementlarining keragidan ortiqan qo‘llanganligini ko‘rish mumkin.

Xususan, frazeologik birliklarning nutq jrayonidagi faoliyati, ularning struktural o‘zgarishi, transformatsiyalanishi masaalari o‘zbek tilshunosligida hali maxsus o‘rganilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev B., Rashidova U. O‘zbek tilining frazeologik stilistikasi. Monografik, -Toshkent, “Navro‘z”, 2016.
2. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologik birliklarining shakllanishi masallaari: Fil.fan.nom.diss.avtooref.Toshkent, 2000.
3. Mamatov A.E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari: Toshkent, 1991.
4. Rashidova U.M. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko‘z, qo‘l va yurak komponentli iboralar misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoferati. Samarqand, 2018.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili fe‘l frazeologik birliklarning bog‘lashuvi. Toshkent. Universitet. 1992.